



COMPARATIVE ANALYSIS OF ANALOGUES IN KARAKALPAK AND UZBEK

Jurakulova Hulkar Farkhodovna

Navoi State Pedagogical Institute

Faculty of Uzbek language and literature

student of Karakalpak language and literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11032427>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2024

Accepted: 21th April 2024

Online: 22th April 2024

KEYWORDS

Analogies, stagnant analogies,
semantic aspects, national
imagery, linguistic aspects,
analogies, comparative analysis.

ABSTRACT

Within linguistic units, metaphors are one of the most commonly used tools. The article interprets the semantic and linvoculturological features of metaphors, stationary metaphors, which are used in both Uzbek and Karakalpak.

QORAQALPOQ VA O'ZBEK TILIDAGI O'XSHATISHLARNING QIYOSIY TAHLILI

Jurakulova Hulkar Farxodovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

o'zbek tili va adabiyoti fakultetining

qoraqalpoq tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11032427>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2024

Accepted: 21th April 2024

Online: 22th April 2024

KEYWORDS

O'xshatishlar, turg'un
o'xshatishlar, semantik jihatlar,
milliy tasavvurlar,
lingvomadaniy jihatlar,
o'xshatish etalonlari, qiyosiy
tahlil.

ABSTRACT

Lingvomadaniy birliklar ichida o'xshatishlar eng ko'p qo'llanadigan vositalardan biri. Maqolada qoraqalpoq tilida ham o'zbek tilida ham qo'llanadigan o'xshatishlarning, turg'un o'xshatishlarning semantik va linvokulturologik xususiyatlari talqin qilingan.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarida markazida til va undan foydalanuvchi inson munosabati masalalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ma'lum bir tildagi lingvomadaniy birliklar til sathining boshqa birliklaridan bevosita milliy-madaniy semaga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Lingvomadaniy birliklarning turi ko'p bo'lsa-da, o'xshatishlar bu birliklar ichida eng ko'p qo'llanadigan vositalardan biri. Har bir tilda o'ziga xos o'xshatishlar qo'llanadi. Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi o'xshatishlar ham bundan mustasno



emas. Lekin bu “qarindosh” ellarning tilida ham milliy-madaniy jihatlarida ham o‘xshashlik va farqli tomonlar bor.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Xorijlik olimlar A.Vejbitskaya, E.V.Babaeva, L.E.Vilms, N.V.Barishev, V.Maslova, Z.U.Abdualieva, N.F.Alefirenko, Z.K.Sabitova, I.A.Murzinova, O.Bicherlarning ilmiy ishlarida lingvokulturologiyaning shakllanish bosqichlari, lisoniy-madaniy tadqiqot usuli, konsept tushunchasi, dunyoning lisoniy manzarasi kabi masalalar yoritilgan. Tilshunoslarning e‘tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi. Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida ham oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiya masalalariga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar SH.Safarov, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, Sh. Usmanova, Z. I. Saliyeva, R.S.Ibragimova kabi olimlar tomonidan olib borilgan.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O‘xshatish deb ikki narsa yoki voqea-hodisa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, konkretroq, bo‘rttiribroq ifodalashga aytiladi. O‘xshatishlarda obrzalilik, tasviriylik kuchli, shuning uchun badiiy nutqda ham, og‘zaki nutqda ham ko‘p qo‘llanadigan vositalardan biri sanaladi. O‘xshatishlarning ikki turi mavjud:1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq o‘xshatishlari yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.[2.5-b.] Qoraqlpoq va o‘zbek tillarida o‘xshatish etaloni sifatida tanlangan so‘zlar har ikki tilning milliy-madaniy xususiyatlarini ko‘rsatib tururuvchi birliklar sanaladi. Masalan:

AYGABAĞARDAY (siyaqli, tarizli) Kórkem suluw: ma’nosida qo‘llanadi. Aygabağar siyaqli juzi ashıq. Qubla jağında úpelek kóp bolıp *aygabağarday* qublağa qarap basın uyıp turadı.(A.Begimov)

JULDIZDAY. (Juldizga usağan, juldiz siyaqli, juldiz tarizli) 1.*Siyrek, hira-shira kórinetuğın* . Anda –sanda jaña ashılıp atırğan paxtalar, tañ aldındağı **siyrek juldizlarday** qalıń japıraqlardıń arasınan jalt etip ketedi.(U.Pirjanov)

2.*Juldızday jarıp shıǵıw, parlaq,jaltıraq,bir dana, shiraylı.*

3.*Uzaq, alıs mánide.* Ol mánzil men ushın **juldızday jıraq** .(I.Yusupov).Esleymen sol **ómirzaya juldızday**, qansha aynalardıń sóngen shırasın .(I.Yusupov)

O‘zbek tilida esa **yulduzday** o‘xshatishi quyidagicha qo‘llanadi:

1) Turli narsa-buyumlar haqida “yarqiramoq, charaqlamoq, miltillamoq” ma’nosida: Olis-olislarda chiroqlar yulduzday miltiraydi. (T.Murod)

2. *Chaqnamoq, charaqlamoq.* Asosan jo‘shqin, jozibali ko‘zlar haqida. Ko‘zlari yulduzdek chaqnaydi.

SHIBIQTAY. *Jaslaw kórinıwı mánisinde sırtqı kóriniske salıstırıp aytıladı.* Ele jas **shıbıqtay** go! Mina meni aytsa boladı otızda dep, Astapıralla! Kúni menen «Qarağım, shırağım, sıńlım, » dep kempirim shıgım otırsam...Dostım ekensen go (M.Nızanov)

O‘zbek tilida esa **tol chiviqday** o‘xshatishi bel, qomat; yosh yigit-qizlar haqida “nozik, ingichka, xipcha, bejirim” ma’nosida qo‘llanadi.

Túye (túyedey (túye tárizli, siyaqli). Qoraqalpoq tilida *túyedey úlken, túyedey sabırılı, tuyedey shógiw mánilerdinde qollanıladı.* **Túyedey** tóze biler sabır menen .(I.Yusupov).



Qaraqalpaqtıń jalǵıs Qara tawı bar , Ámiw jaǵasına **túyedey** shókken .(I.Yusupov) **Túyeniń kózindey**-Ótambet aldına bir záren qatıqtı alıp, sebetten kelinshegi ápergen “túyeniń kózindey” zaǵaranı endi tuwrap bolıp, isheyin deb atır edi.

O‘zbek tilida **tuyaday** o‘xshatishi 1) “*baland, katta*” Tuyaday bo‘y beguncha, ignaday aql bersin. (Maqol) 2) *lo‘killamoq* ma’noisda odamning yurishiga nisbatan: *Tuyaday lo‘killab yuradi*. 3) “bo‘kirmoq, o‘kirmoq” ma’nosida beo‘xshov, baland ovoz chiqarishga nisbatan ham qo‘llanadi: *Og‘riqqa chidolmay tuyaday bo‘kiradi*.

Qumirsqaday 1. Qumirsqaǵa usaǵan, qumirsqa siyaqlı. 2. Bijnaǵan, qaplaǵan. [3.38-b.] 1.“Mayda, shumoliday kishik” ma’nosida qo‘llanadi. Qumirsqaday mayda qurtlar kun sayin bo‘y cho‘za boshladi. (A.Mirahmedov) 2.“Juda ko‘p, ǵujǵon o‘ynagan, qaynagan” ma’nosida: Ko‘shalarda odam *qumirsqaday*. [4.378-b.]

Tana – Bir jasqa tolǵan qara maldıń erkek turi. **Tanaday**. Tana siyaqlı, tanaǵa usaǵan, úlken, iri. *Tanaday* kózi jaltıldap, Buwınları bılqıldap (Abay). Sirimbay baydin *tanaday* bir iyti bar (D.Nasirov). [5.60-b.]

O‘zbek tilida esa *ho‘kiz* so‘zi bilan aynan tana so‘zi bilan hosil qilinga o‘xshatsih qo‘llanadi: 1. *Qaysar, o‘jar, yetovga yurmaydigan*. O‘z bilganidan qolmaydigan odam haqida salbiy munosabat ifodalanadi: Bilasanmi, bu paytda o‘zbeklar nima deydi? –*Ho‘kizdek* qaysar ekansan deyishadi. (X.To‘xtaboyev) 2. *Katta, qo‘pol*. Asosan, odam, it va shu kabilar” haqida. Bazmga bordi bo‘ldi-da! Xotin-xalaj ishida nima bor *ho‘kizdek* yigitga. (O‘.Hoshimov)

Qundızday. Qundız siyaqlı, qundız yańlı, qundızǵa megzes, qundızǵa usaǵan. Suw túbinde qundızday, Yerte tuwıp tez batqan, ómiri zaya juldızday (Q.Ayimbetov). [3.38.] O‘zbek tilida ham qunduz-“suvsarsimonlar oilasiga mansub suv jonzoti, qimmatbaho mo‘ynali hayvon turi” nomini bildiruvshi bu so‘z bilan “qor-qora shiroyli qosh”ga nisbatan o‘xshatish sifatida qo‘llanadi.

Tandirday. Tandirga usaǵan, megzes, tandir siyaqlı, tárizli. Amanliq kelip kirgende, barlıq dosları *tandirday* dóngeleńip, otqa jilinip otır eken (T.Qayıpbergenov) O‘zbek tilida bu so‘z vositasida asosan havo harorati haqida “qizimoq, yonmoq” ma’nosida qo‘llanadi: *Oftob terak bo‘yi ko‘tarilgan, gıyohlar qovjirab havo tandirday qizigan*.

Árwanaday. *Bir órkeshti, taza, tiqir junli, sut kóp beretuǵın, issiǵa, shólge shıdamlı urǵashi tuye*. Botasız *árwana* sorlı analar, Kerderi jurtiniń tul hayallari (I. Yusupov).

Gúbelektey -Tez, tinimsiz. *Jaqtıǵa qaray zuwıladaǵan gúbelektey uship kiyatırǵan*. (J. Aymurzaev)

Aydarday (siyaqlı, tárizli). Jas ballar qırqınan shıqqannan soń balanıń tek tóbesindegi shashın bes jasqa deyin ósiredi. Jelkildep turiw, asılıp turiw mánilerdinde qollanıladı. Bas ushındaǵı **aydarday jelkildegen** urıqqa aralas, bir shoq quw...(U.Pirjanov) **Aydarday jelkilder** isqa qoǵalıp ...(I.Yusupov).

Tariday. 1. Tariǵa uqsas. 2. Juda kep, mayda. Qudaydıń tarıday kúni, ótip atır belgisiz (M.Nizanov). [3.82-b.]

O‘zbek tilida esa quyidagi ma'nolarda qo‘llanadi: 1. “*Juda ham kichik, mayda, arzimagan*”. Zakotchilar orasida tariqday insofi bor odamni ko‘rmaganmen (Oybek). 2. *Sochilmoq*



ma'nosida. Axir, hademay, bor-yo'gi olti oydan keyin maktab tugaydi, keyin hamma chor tomonga *tariqdek* sochilib ketadi (U. H.) [3.307.]

O'zbek tilida xolga nisbatan ***moshdek, nuqtaday*** o'xshatishlari qo'llanadi. Qoraqalpoq tilida ***lobiyaday*** o'xshatishi qo'llanadi: Oniń júzindegı ***lobiyaday*** qalı kapitanniń, kewlinde ayırıqsha qızıǵıwshılıq tásirin payda yetti (A.Bekimbetov). ***Sunqarday***. Sunqar siyaqlı, sunqar tárızlı, sunqarǵa usaǵan. Shabar bolsań, ***arǵımaqtaı*** arqıra, Ushar bolsań, ***sunqarday*** úsh sharq ura... (I.Yusupov) [4.341-b.] O'zbek tilida ham shu ma'noda ***shunqorday***(-dek) shaklida qo'llanadi.

Mamiqtay "oq, oppoq, yumshoq". Bizler turatugın kishkene tuyiq, kósheden mashina jurmengenlikten qarlar basılmaǵan, ***mamiqtay*** appaq bolıp tur edi. (M.Nizanov). [3.239-b.] O'zbek tilida ***momiqtay*** o'xshatishi quyidagi ma'nolrni ifodalaydi:

1. "***Juda ham oq, oppoq***" ma'nosida qo'llanadi: Yomgirdan musaffo bo'lgan osmondagi ***momiqtay*** oppoq bulut parchalari asfalt yuzida qolgan suv parchalarida nozik jilva bera boshladi.(Oybek)
2. "***Juda ham yumshoq***" ma'nosida qo'llanadi: ... yostiqlar ***momiqtay*** yumshoq. (Oybek). [7.135-b.]

Turgun o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Umuman olganda ular ham ayni frazeologik iboralar kabi til birliklariga aylanib qolgan. Lingvokulturologik nuqtai nazardan, ayniqsa, turgun o'xshatishlar-frazeologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqning milliy obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida turg'unlashgan, etalonlashgan obrazlar milliy idrokni aks ettiradi.[2.10-b.]

Qamirdan qil suwirǵanday // Xamirdan qil sug'urganday iborasi ikkala tilda ham bir xil "oson" ma'nosida qo'llanadi. Beknazar ishning bu qadar jo'n, xamirdan qil sug'urganday oson bitayotgani uchun mamnun (Q. Kenja). Achchiq sho'rva ichib ko'rpaga o'ralib yotsangiz, chunonam bir terlaysizki, dardingiz xamirdan qil sug'urgandek chiqib ketadi. (S. Ahmad.).

Tilden qalǵanday– "oylanıp qalıw, qorqıp sóylemey qalıw, hayran bolıw, toqtap qalıw" ma'nosida. ***Tilden qalǵanday lal bolıp turǵan jerinde sileyip qattıda qaldı***. (A. Bekimbetov) [3.86-b.] O'zbek tilida ham bu ibora shu ma'noda "tildan qolganday" shaklida qo'llanadi.

Qoraqalpoq tilida ***qoyǵa usaǵan, qoyǵa megzes, qoy siyaqlı, qoy tárızlı, qoy yańlı, qoyǵa usaǵan*** kabi o'xshatishlar qo'llanadi, shuningdek, qo'y so'zi ishtirokidagi turgun birikmalar ham talaygina:***Qoyday shuwlaw***—uwshuw bolıw,shuwlaw. ***Qoyday órıw***—japırılıp shıǵıw, tolıp ketıw,qaplaw. ***Qoyday buwızlaw,qoyday shalıw***—qırıw, óltırıw, joq qılıw. [4. 5-6.] Qo'y so'zi ishtirokidagi ***Qoyday juwas***("mómin, juwas,garip" ma'nosida) /***qo'yday yuvosh (odam)*** frazemasi har ikkala tilda ham bir xil ma'noda qo'llanadi.

Qoraqalpoq tilida ***eshkke yassiyin aytıp turǵanday*** iborasi qo'llanadi. O'zbek tilida esa "birovning gapi, nasihati e'tiborsiz qolganda" ishlatiladigan bu ibora ***eshakka tanbur chertganday***(variantlari: devorga tanbur chertganday/ eshakning (yoki ho'kizning qulog'iga tanbur chertganday)[5. 660-b.] shaklida qo'llanadi.

O'zbek tilida "tovush chiqarmay, hech narsa demay turmoq" ma'nosida qo'llanadigan ***og'ziga tolqon solganday*** iborasi mazmuni qoraqalpoq tilidagi ***awzına qatıq uyıtqanday va awzına qum quyılǵanday*** iborasi bilan sinonim.Dúsenbay ***awzına qum quyılǵanday*** tinip, eki qoli menen basin qısıw menen oylanıp qaldı. (T.Qayıpbergenov)[6. 36-6.]



Bu turg'un o'xshatishlar tarkibida ham milliy konnotatsiya mavjud va uni *tolqon* so'zi va *qatiq uyitmoq* birikmasi hosil qilmoqda. Tolqon so'zi "qovurilgan don, quritilgan non va shu kabilardan tayyorlangan yemish" ma'nosini anglatadi. Kuchli, azamat ma'nosini ifodalovchi tog'ni ursa tolqon (*qiladigan*) qilguday iborasi tarkbidagi tolqon so'zi shu yemish, yegulikka o'xshashlik asosida ko'chma ma'noda qo'llangan.

Turli hayvon va jonivor nomlarini bildiruvchi so'zlar yordamida hosil qilingan o'xshatishlar ko'proq uchrashi ma'lum bo'ldi. Turli tushunchalarni ifodalashda o'simlik nomlari vositasida hosil qilingan o'xshatishlar miqdor jihatdan salmoqli.

Doimiy o'xshatishlar tarkibidagi o'xshatish obrazi, ya'ni o'xshatish etaloni alohida ahamiyatga ega. Bu unsur o'xshatishning markazini tashkil etadi. Ayni shu etalon esa til egasi bo'lgan xalqning dunyoqarashi ifodalash bilan birga milliy-madaniy jihatlarni aks etadi. O'zbek va qoraqalpoq tillaridagi doimiy o'xshatishlar semantik jihatdan har ikki tilda bir xil shakl va ma'noda qo'llanadigan doimiy turg'un o'xshatishlar, o'zbek va qoraqalpoq tillarida shakl boshqa ma'nosi bir-biriga o'xshash turg'un o'xshatishlar mavjud.

Tahlil qilingan qilingan o'xshatishlar lingvopoetik jihatdan nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vosita sifatida ham, lingvokulturologik birlik sifat ham ahamiyatli birliklar sanaladi.

References:

1. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.
2. Ibragimova R. S. Fransuz va o'zbek tillarida ayol konseptining lingvokognitiv tadqiqi. NDA. T. 2012.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. - № 5. – B. 3 – 16.
4. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. T.:2013.
5. Qaraqalpaq tilinin tusundirme so'zligi. 7 tom. No'kis. Qaraqalpaqstan. 2023.
6. Qaraqalpaq tilinin tusundirme so'zligi. 5 tom. No'kis. Qaraqalpaqstan. 2023.
7. Qaraqalpaq tilinin tusundirme so'zligi. 4 tom. No'kis. Qaraqalpaqstan. 2023.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild. O'zME. –T. 2006.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. O'zME. –T. 2006.